ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

MAXTUMQULI SHE'RLARIDAGI JUFT SO'ZLAR TAHLILI

Kadirova Zaynura Zaynidinovna
Termiz davlat universitet o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya: maqolada Maxtumquli she'riy texnikasining nozik tahlili berilgan, uning she'riyatida til, madaniyat va ma'no kesishishning murakkab yo'llari yoritilgan. Maqola qo'sh so'zlarni sinchkovlik bilan tekshirish orqali Maxtumquli adabiy merosini chuqurroq anglash va tushunishga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: Maxtumquli, turkiy she'riyat, qo'sh so'zlar, lingvistik tahlil, semantik munosabatlar, madaniy kontekst, she'riy texnika, adabiy tahlil.

O'zbekistonda Turkman shoiri Maxtumqulining 300 yillik tavalludi keng nishonlanmoqda. Barcha ijodiy merosi bir kitobga to'planib nashr qilinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qarorida: "Turkman xalqining ulug' farzandi Maxtumquli Firog'iy nafaqat turkiy xalqlar, ayni paytda jahon adabiyoti va madaniyati tarixida alohida o'rin egallagan atoqli shoir va mutafakkirdir. Hassos so'z san'atkorining chuqur gumanizm bilan sug'orilgan asarlari mard va matonatli, mehnatkash turkman xalqining ezgu qadriyatlari va olijanob fazilatlarini tarannum etishi, hamisha xalq bilan hamdard bo'lishga, turli millat va elatlar o'rtasida o'zaro ahillik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan mazmun-mohiyati bilan barchamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun ibrat namunasidir", — deyilgan[6].

Turkman klassik adabiyotining otasi, zabardast lirik shoir va mutafakkir Maxtumquli Firog'iy Turkmanistonning Qoraqal'ada shoir Davlatmamed Ozodiy oilasida tug'ildi. Avval qishloq maktabida, keyinchalik Xiva madrasalarida tahsil oldi. Shu yillarda u turkman, o'zbek va fors-tojik klassiklari ijodini tinmay mutolaa qildi. Maxtumqulining ijodi klassiklarga ergashib, lirik she'rlar yozishdan boshlandi. Sharq klassik poeziyasini, ayniqsa Alisher Navoiy ijodini yaxshi o'rgangan shoir sekin-asta o'zi ham o'ynoqi, ravon g'azallar ijod qilishga kirishdi. Maxtumquli poeziyasida didaktika kuchli. Uning she'rlarida axloq va odob to'g'risida bayon etilgan fikrlar, shubhasiz, o'z zamonasi uchun progressiv ahamiyatga ega edi. Maxtumquli g'azallari o'zbek xalqi orasida ko'pdan beri keng tarqalgan. Xalq uning qo'shiqlarini havas bilan sevib aytadi. Maxtumqulining she'rlar to'plami o'zbek tilida bir necha marta nashr ettirildi[5].

Maxtumquli she'rlaridagi juft so'zlar tahlili:

1. "Aytishuv" she'ridagi juft so'zlar: qizil-yashil, yemadilar-to'ydilar;
2. "Nuqsona kelgay" she'ridan: el-borlik, urf-odat, zil-yuk, murodim-nasihat, sari-sarkori;
3. "Yuraging qon ichinda" she'rida: javhari-jon, qurt-qushlar, o'lik-tirik, xabar-xotir, yaxshi-yomon, qo'l-oyoq, o'q-yoy;
4. "Hazorda ostona sari" she'rida: falak-baqqol, istar-ko'char;
5. "Kelgan ham bordir" she'rida: darvish-siyna, halol-harom, pisib-qochib;
6. "Inson yaratdi" she'rida: firdavs-a'zo, mal'un-shayton, durri-yagona, mardi-maydon, bog'-u bo'ston, kecha-yu Kunduz;
7. "Qor bilan" she'rida: mayda-chuyda, tinch-orom, ko'ra-bila;
8. "Nomus-orima" she'rida: mard-u nomard, oh-voh;

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

9. “Badnom o‘lur” she’rida: qo‘l-u qahri, kam-pushaymon;

10. “Savol-sinov” she’rida: ko‘k- falak, tengi-to‘sh;

11. «Unib-o‘sgan o‘z yurtingdan ayirma” she’rida: unib-o‘sgan, muxannas-nochorlar;

12. “Yomg‘ir yog‘di, Sultonimlar” she’rida: gard-g‘ubor, ko‘zlar-haq, qoniqtir-ketsin, banda-bechora, maqsad-kam;

13. “Foniy dunyo o‘tar ketar” she’rida: o‘tar-ketar, bitar-ketar, tog‘-toshlar, qum-tufroq;

14. “Ko‘ngil yetmas hech” she’rida: orzu-toza, ishqing-hayoling, yrtmas-tursang, betin-jahon, bilarman-pandim, falak-qimorboz, osh-suv, suhbat-so‘z;

15. “Ko‘rgaymiz endi” she’rida: qo‘rqa-pisa, azal-boshda, yaqin-yiroq, kelib-olibdir, o‘g‘il-qiz;

16. “Naylaram” she’rida: axli-hol, dardni-yu ozurda, zavqi-sarvar, mavt-u qubur, asbob-malol, domain-vasfing, garon-quvvatim, mo‘r-malox;

17. “Qon chiqar” she’rida: qadri-siym, ganji-bepoyon, zer-u zabar, tog‘-u dengiz;

18. “Raygon ayladi” she’rida: g‘am-qayg‘u, bog‘-u qul, sarg‘ayib-so‘lib, kecha-kunduz;

19. “Yot bo‘lar” she’rida: og‘a-ini, tepsa-eshak, olov-o‘t, shoh-u gadag‘a;

20. “Oldi-orti bilinmas” she’rida: oldi-orti, dashti-Dahhon, to‘g-tosh, dov-talashib, uch-u to‘rt, zamin-u osmon, hok-u gardi.

Yuqoridagi she’rlaridan namunalar Maxtumquli Firog‘iyning “Saylanma” asaridan olingan[4].

Shoir o‘z zamonasining illatlari – yomonning, kazzobning ishi avj olib, yaxshilar, donolar xor bo‘lganini, beklar bir-birlari bilan olishib, yurtni xarob etayotganini, tarafkashlik, zo‘ravonlik elini parokanda etayotganini ko‘rib fig‘on kechadi. U nola qilmaydi, barcha oh-u vohlarini she’rlarida bayon etib, xalqini, millatini ezgulikka chorlaydi, barcha illatlarni o‘z she’rlarida aks ettirib ommaga taqdim etganida osha millat xalqi o‘zlarining qay ahvolga tushib qolganini aynan Maxtumquli she’rida anglaydi. Buyuk ijodkorning xotirasi adabiy va uning she’rlari bugungi kun uchun ham pand-nasihat sifatida taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aripov B. Makhtumkuli divani va falsafa. Tashkent: G'afur G'ulom. 2008-yil.
2. Mahmudov O. Maxtumquli tarjimai hol: falsafa va ijod. Tashkent: Yangi asr avlodi. 2018-yil.
3. Makhmudov A. Makhtumkuli: hayoti va ijodi. Tashkent: Sharq. 2010-yil
4. Maxtumquli Firog‘iy. Saylanma. Toshkent. 2008-yil.
5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/turkman-she-riyati/maxtumquli-1733-1790
6. https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/20/mahtumkuli/